

# RAQAMLI TA'LIM VA STARTAP AKSELERATSIYA MARKAZI FAOLIYATI HAMDA UNIVERSITET STARTAPLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HISOBOT 2025 YIL

[Raqamli ta'lim va startap akseleratsiya markazi - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining tarkibiy bo'linmasi](#) bo'lib, innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirish hamda texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Markaz faoliyati ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, talabalarning tadbirkorlik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek startap loyihalarini inkubatsiya va akseleratsiya bosqichlarida aniqlash hamda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Markaz ilmiy g'oyalarni tijoratlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda universitetda barqaror innovatsion ekotizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

2025-yilda universitet Raqamli ta'lim va startap akseleratsiya markazining faoliyati texnologik tadbirkorlikni tizimli rivojlantirish hamda akademik ishlanmalarni tijoratlashtirishga yo'naltirildi. Markaz faoliyatining asosiy maqsadi innovatsion loyihalarni yaratishga ko'maklashuvchi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi hamda ta'lim jarayonini raqamli iqtisodiyot bilan integratsiya qiluvchi barqaror tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Hozirgi kunda markaz reyestrda turli rivojlanish bosqichlarida bo'lgan **7 ta startap** loyiha qayd etilgan. Ekotizim zamonaviy raqamli iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini qamrab oladi, jumladan: **raqamli platformalar va UGC-iqtisodiyoti, ekologiya va biotexnologiyalar, raqamli sog'liqni saqlash, moliyaviy texnologiyalar, ijtimoiy tadbirkorlik hamda gender tengligi.**

Barcha **7 ta loyiha** mentorlik yordami, biznes-modellar bo'yicha konsultatsiyalar, akseleratsiya dasturlariga kirish imkoniyati, shuningdek tashkiliy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash orqali tizimli yordam oldi. Bunga yorqin misol sifatida **WiB Club** loyihasiga zamonaviy texnik jihozlar (proyektor, monitor, doska) bilan ta'minlangan maxsus xona ajratilgani hamda tashqi ekspertlarni jalb etish uchun ma'muriy ko'mak ko'rsatilganini keltirish mumkin.

Hisobot davrida inkubatsiya dasturi, workshoplar, xakatonlar, demo-kunlar va ekspert ma'ruzalari kabi 12 ta ta'lim va akseleratsion tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbirlar startap yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish, biznes g'oyalarni sinovdan o'tkazish hamda loyihalarni investitsiyaga tayyorlashga xizmat qildi. **UNDP** va **Global Shapers** kabi xalqaro hamkorlar bilan strategik hamkorlik barqaror rivojlanish

kun tartibini talaba loyihalariga integratsiya qilish hamda mahalliy tashabbuslarni xalqaro networking darajasiga olib chiqishga imkon berdi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, eng muhim moliyaviy natija **Between** startapi tomonidan qayd etildi. Mazkur loyiha **Aloqa Ventures** va **Yoshlar Ventures** tomonidan umumiy qiymati 87 000 AQSh dollari miqdoridagi dastlabki investitsiya majburiyatlarini (soft commitment) qo'lga kiritdi.

2025-yil yakunlari bo'yicha universitet startaplarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirdi. Ushbu tizim loyihalar sonining ortishi, sanoat hamkorligi kuchayishi hamda dastlabki investitsion natijalarga erishilganini namoyon etdi. Yaratilgan ekotizim kelgusida kengayish va milliy innovatsion infratuzilmaga integratsiyalashish uchun yuqori salohiyatga ega.

### 1-Jadval. Universitet startaplari reyestri (2025-yil)

| №  | Startup nomi     | Asoschilar (talabalar/xodimlar)                                                                    | Qisqacha tavsif                                                         | Ijtimoiy / moliyaviy barqarorlik                                                           | Yaratilgan yil | Universitet tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash turi                                  | Havola                                                                                          |
|----|------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>Between</b>   | Xodim — Abdimu-ratova Bibixonim; Talabalar: Xasanova Sevara, Sanjar Rashidov, Dinara Abduraxmanova | B2C bizneslar va mikro-influencerlar o'rtasidagi hamkorlik platformasi  | UGC-iqtisodiyoti; kengaytiriladigan raqamli model; komissiya va obuna orqali monetizatsiya | 2024           | Mentorlik yordami, biznes-model bo'yicha konsultatsiyalar, akseleratsiya ekotizimiga kirish | <a href="http://www.between.uz">http://www.between.uz</a>                                       |
| 2. | <b>TeminaFit</b> | Talabalar — Maxamasaliyev Firdavs, Nematov Bekzod                                                  | Kamera orqali mashqlarni kuzatuvchi gamifikatsiyalangan fitness ilovasi | Sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi; obuna modeli va hamkorliklar                       | 2025           | Mentorlik yordami, konsultatsiyalar, akseleratsiya dasturlariga kirish                      | <a href="https://www.instagram.com/p/D0vD82yDKNs/">https://www.instagram.com/p/D0vD82yDKNs/</a> |
| 3. | <b>MedAtlas</b>  | Talabalar — Amanbayeva Mohina,                                                                     | Tibbiy yordam va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun onlayn platforma     | Tibbiy axborotga kirishni yaxshilaydi; daromad —                                           | 2025           | Mentorlik yordami, konsultatsiyalar, akseleratsiya                                          | -                                                                                               |

|    |                                                  |                                                                                         |                                                                                       |                                                                                                 |             |                                                                                                             |                                                                 |
|----|--------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
|    |                                                  | Baxtiyorova<br>Manzura                                                                  |                                                                                       | obuna va B2B<br>xizmatlar                                                                       |             | dasturlariga<br>kirish                                                                                      |                                                                 |
| 4. | <b>Plastiklarni<br/>qayta ishlash</b>            | Talaba —<br>Namozov<br>Bekjon                                                           | Plastik<br>chiqindilarni<br>foydali<br>mahsulotlarga<br>qayta ishlash<br>loyihasi     | Atrof-muhit<br>ifloslanishini<br>kamaytiradi;<br>qayta ishlash<br>orqali daromad<br>modeli      | <b>2024</b> | Mentorlik<br>yordami,<br>konsultatsiyala<br>r, akseleratsiya<br>dasturlariga<br>kirish                      | -                                                               |
| 5. | <b>Women in<br/>Business Club<br/>(WiB Club)</b> | Talaba —<br>Mushtariy<br>Shaymardanov<br>a (UWED va<br>Global Shapers<br>ko'magida)     | Talaba-qizlar<br>uchun ta'limiy va<br>liderlik dasturi                                | Ayollar<br>tadbirkorligini<br>rivojlantirish;<br>hamkorliklar<br>orqali kengayish<br>imkoniyati | <b>2025</b> | Xona va texnik<br>jihozlar<br>ajratish,<br>ma'muriy<br>qo'llab-<br>quvvatlash                               | -                                                               |
| 6. | <b>AuditService.uz</b>                           | Talaba —<br>Xusniddin<br>Salimov                                                        | Soliq tahlili va<br>buxgalteriya<br>jarayonlarini<br>avtomatlashtirish<br>platformasi | Biznes<br>shaffoqligini<br>oshiradi;<br>freemium biznes<br>modeli                               | <b>2025</b> | Mentorlik,<br>platformani<br>rivojlantirish<br>bo'yicha<br>konsultatsiyala<br>r,<br>taqdimotlarda<br>yordam | <a href="https://auditservice.uz/">https://auditservice.uz/</a> |
| 7. | <b>iTree</b>                                     | Talabalar —<br>Ixtiyor<br>Narzikulov,<br>Firdavs<br>Maxamasaliyev,<br>Nematov<br>Bekzod | Havoni tozalovchi<br>shahar<br>fotobioreaktori                                        | Smart City<br>yechimi;<br>grantlar va<br>hamkorliklar<br>orqali daromad<br>imkoniyati           | <b>2025</b> | Mentorlik,<br>rivojlantirish<br>bo'yicha<br>konsultatsiyala<br>r, ekspert<br>yordami                        | -                                                               |